

**SON SO'Z TURKUMINI O'RGANISHDA GRAMMATIK  
O'YINLARDAN FOYDALANISH**

**G'oyimov Umar Eshmurodovich**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta 'lim metodikasi kafedrasi o 'qituvchisi*

**Tog'ayeva Sevinch Komiljon qizi**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta 'lim yo 'nalishi talabasi*

*sevinchtogayeva0905@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada son so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot, boshlang'ich sinf o'quvchilariga son so'z turkumini o'rgatish, ona tili darslarida uzluslikni ta'minlash, son so'z turkumini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rganish haqida so'z boradi. Shuningdek, son so'z turkumini o'rganishda grammatik o'yinlar va ularning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, darslik, son so'z turkumi, miqdor son, tartib son, grammatik o'yinlar, didaktik o'yinlar.

**USING GRAMMAR GAMES IN LEARNING NUMBER OF WORDS**

**Annotation.** This article provides general information about number vocabulary, teaching number vocabulary to elementary school students, ensuring continuity in mother tongue classes, learning number vocabulary in integration with other subjects. is talked about. Grammatical games and their importance are also discussed in the study of numerical vocabulary.

**Key words:** mother tongue, textbook, number vocabulary, quantity number, order number, grammar games, didactic games.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГРАММАТИКИ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ СЛОВ**

**Аннотация.** В данной статье даны общие сведения о числовой лексике, обучении числовой лексике учащихся начальных классов, обеспечении преемственности на занятиях по родному языку, идет речь об изучении числовой лексики в интеграции с другими предметами. Грамматические игры и их значение также обсуждаются при изучении числовой лексики.

**Ключевые слова:** родной язык, учебник, числовая лексика, количество-число, порядковый номер, грамматические игры, дидактические игры.

## KIRISH

Ta'lim – bu inson hayotidagi eng muhim jihatlardandir. Har bir inson o'z qadr-qimmatini anglaydigan, bilimga chanqoq va ma'naviyatga boy bo'lishi uchun ta'lim zarur. Bugungi kunda ta'limning dolzarbliyi yanada oshib bormoqda, chunki u nafaqat shaxsiy o'sish, balki jamiyat va davlat rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, ta'lim ijtimoiy taraqqiyotning asosiy elementidir. Bilimli insonlar jamiyatda o'yinchoq sifatida emas, balki faol qatnashchilar sifatida ko'rindi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishga olib keladi. Ta'lim orqali insonlar bir-biriga yordam berish, o'z fikrlarini erkin ifodalash va umumiy manfaatlar uchun kurashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, ta'lim innovatsion rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir. Zamonamiz texnologik o'zgarishlar davrida, yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish hayotiy zaruratga aylangan. Yangi kashfiyotlar va texnologiyalar inson ehtiyojlarini qondirish va hayotni yaxshilashda yordam beradi. Shuning uchun, yaxshi ta'lim olgan mutaxassislar har doim talabga ega bo'lib, ularning ishga joylashish imkoniyatlari ko'proq bo'ladi.

Uchinchidan, ta'lim shaxsiy o'sish uchun muhim bo'lib, insonning o'z-o'zini anglashiga yordam beradi. O'z bilimlari va qobiliyatlariga ega bo'lgan inson, o'z maqsadlariga erishish uchun ishonch bilan harakat qiladi. Shuningdek, ta'lim orqali insonlarning kreativ fikrlash qobiliyati rivojlanadi, bu esa zamonaviy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Oxirgi, lekin muhim jihat bu ta'limning kelajagi va xavfsizligi. Yangi avlodni ta'lim olishga yo'naltirish, ularga insoniy qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni va global masalalarni hal qilishga tayyorlash hozirgi sharoitda juda muhimdir. Ta'lim insonlarni nafaqat yaxshi mutaxassislar, balki mas'uliyatli fuqaro bo'lishga tayyorlaydi.

Ta'limning dolzarbliyi har qanday davrda davom etadi. U shaxsiy o'sishdan tortib, jamiyat va davlat rivojlanishigacha ko'plab sohalarda o'z ahamiyatini namoyon etadi. Shunday ekan, ta'limga e'tibor berish va uning sifatini yaxshilash – bu har bir insonning, ayniqsa, yosh avlodning burchidir. Ta'lim taraqqiyotning kalitidir va u orqali biz yaxshiroq kelajakni qurishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHЛИI:** Ushbu maqolada “Ona tili va o'qish savodxonligi” 1-4-sinflar uchun darslik hamda mavzuga oid maqlolardan foydalanildi.

## MUHOKAMA VA NATIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari savod o'rgatish davrini yakunlaganlaridan so'ng, ular bosqichma-bosqich ona tili va uning gramatikasi haqida ma'lumotga ega bo'la boshlashadi. O'quvchilarining Yoshi, bilim darajasidan kelib chiqib mavzular ketma-ketligi tuziladi. Jumladan, ma'lumotlar uzviyligini ta'minlash maqsadida darslarda ta'lim jarayoni soddadan murakkabga qarab boriladi. O'quvchilar 2-sinfga kelib, so'z turkumlari haqida qisman sodda ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Son shaxs va narsaning sanog'ini, miqdorini, tartibini bildiruvchi mustaqil so'z turkumi. Sonlar ma'no xususiyatiga ko'ra 2turga bo'linadi: tartib son va miqdor son. Tartib son shaxs va narsaning ketma-ketligini, tartibini ifodalaydi. Tartib son sanoq sonlarga -(i)nchi qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: beshinchi, yettinchi va hokazo. Miqdor sonlar shaxs va narsaning miqdorini, sanog'iga ko'ra belgisini ifodalaydi. O'zbek tilida miqdor sonlar 6turga bo'linadi: sanoq son, dona son, chama son, taqsim son, jamlovchi son va kasr son. Sanoq son shaxsва narsaning sanog'ini bildiradi: bir, ikki, yuz, ming va hokazo. Dona son biror narsa-buyumning midorini donalab ko'rsatadi va u sanoq songa –ta qo'shimchasini qo'shish natijasida hosil bo'ladi: to'rtta ruchka, oltita kitob. Chama son shaxs va narsaning noaniq va tahminiy midorini chamalab ifodalaydi va sanoq songa –tacha, -lab, -larcha qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi: o'ntacha, o'nlab, o'nlaracha. Jamlovchi son bir turdag'i narsa-buyumlarning yig'indisini ifodalaydi, jamlaydi. Sanoq songa –ov, -ala qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi: ikkov, to'rtala. Taqsim son nasra-buyumni teng taqsimlash, qismlarga ajratish uchun qo'llaniladi va sanoq songa –tadan qo'shimchasini qo'shish natijasida hosil bo'ladi: bittadan olma, uchtadan gul. Kasr son butunning qismini bildiradi: uchdan bir, to'qqizdan to'rt. Yarim, chorak, nimchorak so'zlari ham kasr songa mansub so'zlardir.

Boshlang'ich sinflarda yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bir vaqtida emas, balki soddalikk bilan bosqichma-bosqich o'rgatiladi. 1-sinflarda son so'z turkumi "Shaxs va narsaning sanog'ini, miqdori" deb berilgan. Darslikda sonni o'quvchilarga ko'rgazmalilik asosida rasmlar bilan ifodalab yoritib berilgan. 2-sinfda "Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar" deya keltirilgan. Ikkinchi sinfda sanoq son va tartib son haqida sodda ma'lumotlar ham qo'shimch ma'lumot sifatida kiritilgan. 3-sinfda "Son haqida ma'lumot" deya keltirilib, quyida o'rganilgan bilimlarga yana ma'lumotlar qo'shilib, birlashgan. 4-sinfda esa son va uning turlari haqida alohida mavzular keltirilgan.

Sonlarni o'rgatish bosqichma- bosqich o'rgatilar ekan, dars jarayonida turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish, grammatik o'yinlarni qo'llash dars samarasini oshirishda, mavzularni o'quvchilarga tushunarli bo'lishiga muhim ahamiyat kasb etadi.

Son so'z turkumini o'rganishda quyidagi grammatik o'yinlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

"To'g'ri top" o'yini

Maqsadi: son so'z turkumini o'quvchilarga yaxshiroq o'rgatish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mavzuni o'rganishga qiziqtirish.

Kerakli vositalar: sonlar yozilgan kartochkalar, savatcha

Qo'llanish tartibi: dastlab o'quvchilarni ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhga sonlarning turlariga mos keltirib misol yozilgan kartochkalar beriladi. Bu kartochkalar

o'qituvchining kreativligidan kelib chiqqan holda turli meva yoki sabzavotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. O'quvchilarga 5daqiqqa vaqt beriladi. Bu vaqt mobaynida o'quvchilar sonning turlarini ajratib har birini alohida savatchaga solishi kerak bo'ladi. Shu tariqa o'yin oxirida qaysi guruh ko'p va to'g'ri topgan bo'lsa, shu guruh g'olib bo'ladi.

Bu o'yinni individual usulda ham qo'llash mumkin. O'yin o'rinali qo'llanilganda, o'quvchida darsga bo'lgan qiziqish oshadi, bilimlari mustahkamlanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda har bir mavzuni tushuntirishda grammatik o'yinlardan foydalanish, didaktik o'yinlarni qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lib, o'qituvchi qanchalik kreativ fikrlasa, o'quvchilar ham shu holatga mos ravishda shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh va rang-baranglikka qiziqqon, o'yinqaroq bo'lganliklari sababli ularga mavzuni o'yinlar yordamida tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinfda olingen bilimlar kelajakdagi bilimlar uchun tamal toshi bo'lib hizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yuksak vazifa beriladi. Bunday mashaqqatli vazifani a'lo darajada bajarish, o'sib-unayotgan yosh avlodni ilmli va zamon talablariga mos bo'lib voyaga yetishi uchun xizmat qiladi. Zero, kelajak yoshlar qo'lida!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. 1-sinf ona tili darsligi 2-qism 2023-yil.
2. 2-sinf ona tili darsligi 3-qism 2023-yil.
3. 3-sinf ona tili darsligi 4-qism 2023-yil.
4. 4-sinf ona tili darsligi 3-qism 2023-yil.
5. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova "Ona tili o'qitish metodikasi" T.: "Nosir" nashriyoti
6. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) internet kutubxona
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) materiallari
8. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz) materiallari